



SOCIO-PHILOSOPHICAL FEATURES OF FORMING THE AESTHETICS OF HEALTH IN HUMAN BEINGS

Feruz Kamilovich Javliyev

Assistant, Kattakurgan State Pedagogical Institute

E-mail: f.javliyev@mail.ru

Kattakurgan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: health aesthetics, philosophy, healthy lifestyle, aesthetic consciousness, axiology, culture, spirituality, human development.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: This article examines the interrelation between human health and aesthetic culture from a socio-philosophical perspective. The factors influencing the formation of health aesthetics, as well as its spiritual, moral, and cultural foundations, are analyzed. The importance of aesthetic consciousness in establishing a healthy lifestyle in modern society is revealed. The study employs axiological, anthropological, and socio-cultural approaches. The research findings substantiate that the development of health aesthetics is one of the significant factors in human perfection and social development.

INSONDA SALOMATLIK ESTETIKASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Feruz Kamilovich Javliyev

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti assistenti

f.javliyev@mail.ru

Kattaqo'rg'on, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: salomatlik estetikasi, falsafa, sog'lom turmush tarzi, estetik ong, aksiologiya, madaniyat, ma'naviyat, inson kamoloti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson salomatligi va estetik madaniyatning o'zaro aloqadorligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Salomatlik estetikasining shakllanish omillari, uning ma'naviy, axloqiy hamda madaniy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda sog'lom turmush tarzini

qaror toptirishda estetik ongning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida aksiologik, antropologik va sotsiokulturologik yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida salomatlik estetikasini rivojlantirish inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanligi asoslandi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИКИ ЗДОРОВЬЯ У ЧЕЛОВЕКА

Феруз Камилевич Жавлиев

Ассистент Каттакурганского государственного педагогического института

E-mail: f.javliev@mail.ru

Каттакурган, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эстетика здоровья, философия, здоровый образ жизни, эстетическое сознание, аксиология, культура, духовность, развитие личности.

Аннотация: В данной статье взаимосвязь здоровья человека и эстетической культуры исследуется с социально-философской точки зрения. Анализируются факторы формирования эстетики здоровья, её духовные, нравственные и культурные основы. Раскрывается значение эстетического сознания в формировании здорового образа жизни в современном обществе. В ходе исследования использованы аксиологический, антропологический и социокультурный подходы. В результате исследования обосновано, что развитие эстетики здоровья является одним из важных факторов совершенствования личности и развития общества.

Kirish. XXI asrda inson salomatligi nafaqat tibbiy-biologik, balki ijtimoiy, ma'naviy va estetik qadriyat sifatida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, urbanizatsiya, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va turmush tarzidagi o'zgarishlar insonning sog'lig'iga bo'lgan munosabatini yangicha mazmunda shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, salomatlik estetikasini shakllantirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Salomatlik estetikasi insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy barkamolligini uyg'un holda idrok etish va qadrlashga asoslangan tushunchadir. U sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tana va ruh uyg'unligini ta'minlash, ekologik va ma'naviy madaniyatni rivojlantirish orqali namoyon

bo'ladi. Falsafiy jihatdan salomatlik estetikasi insonning o'ziga, jamiyatga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli salomatlikni faqat kasallikning yo'qligi sifatida emas, balki insonning hayot sifati, ijtimoiy faolligi va estetik dunyoqarashining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy faollikni rag'batlantirish, zararli odatlarning oldini olish va salomatlik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq salomatlikka faqat tibbiy muammo sifatida yondashish uning ijtimoiy-falsafiy va estetik jihatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Insonda salomatlik estetikasini shakllantirish jarayonida oila, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniy muhit va milliy qadriyatlarning ta'siri muhim o'rin tutadi. Aynan shu omillar orqali sog'lom hayot tarzining estetik qadri shakllanadi va jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi insonda salomatlik estetikasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilish, uning shaxs kamoloti va jamiyat rivojidadagi o'rnini aniqlash hamda salomatlikka oid estetik qarashlarning shakllanish omillarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism. XXI asrda inson hayotining barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Globallashuv jarayonlari, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashuvi, urbanizatsiya darajasining ortishi hamda axborot oqimining keskin kengayishi insonning nafaqat turmush tarziga, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy-ruhiy holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shunday murakkab ijtimoiy sharoitda inson salomatligi masalasi faqat tibbiy-biologik muammo sifatida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ham o'rganilmoqda. Zamonaviy ilmiy-falsafiy adabiyotlarda salomatlik tushunchasi tobora kengayib, u insonning jismoniy holati bilan bir qatorda uning ruhiy barqarorligi, estetik didi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy madaniyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etilmoqda. Bu esa "salomatlik estetikasi" tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishiga va uning inson kamoloti bilan bog'liq holda tadqiq etilishiga zamin yaratmoqda. Salomatlik estetikasi insonning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi murakkab falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Sharq va G'arb falsafiy an'alarida inson salomatligi va go'zallik tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqlikda talqin etilgan.

Xususan, Abu Ali ibn Sino o'zining tibbiy-falsafiy qarashlarida salomatlikni tana va ruh uyg'unligi sifatida izohlab, inson hayotida me'yor, muvozanat va ma'naviy poklikning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Antik falsafada esa Aristotel go'zallikni uyg'unlik va me'yor bilan bog'lab, inson kamolotini estetik va axloqiy yaxlitlik sifatida talqin qilgan. Ushbu qarashlar

bugungi kunda salomatlik estetikasining nazariy-falsafiy asoslarini tushinishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda esa salomatlik estetikasining mazmuni yanada murakkablashib bormoqda. Ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar va reklama industriyasi inson ongida “ideal tana”, “mukammal tashqi ko‘rinish” kabi estetik stereotiplarni shakllantirmoqda. Natijada salomatlik tushunchasi ayrim hollarda tashqi go‘zallik bilan cheklanib qolish xavfi ostida qolmoqda. Bu esa salomatlik estetikasini chuqur falsafiy, aksiologik va sotsiokulturologik nuqtayi nazardan qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda ekologik muammolar, stressli hayot tarzi, harakatsizlik va psixologik bosim inson salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning ichki muvozanatini buzmoqda. Bu holat salomatlikni faqat jismoniy holat sifatida emas, balki insonning ma’naviy-ruhiy va estetik kamoloti bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Aynan shu jihatdan salomatlik estetikasi inson hayot sifatini belgilovchi muhim ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — insonda salomatlik estetikasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilish, uning nazariy asoslarini ochib berish hamda zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini asoslashdan iborat. Shu maqsadda tadqiqot jarayonida aksiologik, antropologik, sotsiokulturologik va germenevtik yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar yordamida salomatlik estetikasining inson ongida shakllanish jarayoni, uning qadriyatlar tizimidagi o‘rni hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqadorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Shunday qilib, salomatlik estetikasini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlar ongida estetik va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish hamda jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Insonda salomatlik estetikasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini shakllantirish uchun jamiyatda bir qancha metodlarni amalga oshiri-sh lozim. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Germenevtik metod — matn, g‘oya, tarixiy hodisa, madaniy qarash yoki falsafiy fikrlarning mazmunini chuqur talqin qilish va tushuntirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot usulidir. “Germenevtika” so‘zi qadimgi yunoncha hermeneuein — “izohlash”, “talqin qilish”, “tushuntirish” degan ma’nolarni anglatadi. Dastlab ushbu metod diniy matnlarni sharhlash uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik falsafa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslikda keng qo‘llanila boshlandi.

Aksiologik yondashuv — qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, inson hayotidagi moddiy va ma’naviy qadriyatlarning mazmuni, mohiyati hamda ahamiyatini o‘rganadi. “Aksiologiya” termini yunoncha axios — “qadriyat” va logos — “ta’limot” ma’nolarini anglatadi.

Mazkur yondashuv inson faoliyati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini qadriyatlar tizimi orqali tahlil qilishga asoslanadi. Salomatlik estetikasini shakllantirishda aksiologik yondashuv alohida ahamiyatga ega bo'lib, u salomatlikni inson hayotidagi eng muhim qadriyatlardan biri sifatida talqin qiladi. Bunda salomatlik nafaqat biologik holat, balki insonning ma'naviy kamoloti, estetik didi va ijtimoiy madaniyatining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Insonda salomatlik estetikasini shakllantirish nafaqat biologik yoki tibbiy jarayon, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan murakkab hodisadir. Ushbu jarayon shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, madaniy muhiti va ijtimoiy munosabatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, sog'lom turmush tarzini estetik ideal darajasiga ko'tarishni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, salomatlik estetikasi insonning ichki va tashqi uyg'unligini ta'minlash, ruhiy va jismoniy barqarorlikni shakllantirish hamda jamiyatda sog'lomlik madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda ta'lim tizimi, oila instituti, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhitning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Falsafiy jihatdan qaralganda, salomatlik estetikasi insonning o'zini anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u go'zallik, uyg'unlik va komillik tushunchalari orqali namoyon bo'ladi. Shu bois, sog'lomlikni faqat jismoniy holat emas, balki ma'naviy-axloqiy yetuklikning ham ifodasi sifatida tushunish zarur. Umuman olganda, salomatlik estetikasini shakllantirish jamiyatda sog'lom avlodni tarbiyalash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va insonning hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu masala zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, salomatlik estetikasi insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy kamolotini o'zida mujassamlashtiruvchi muhim ijtimoiy-falsafiy kategoriya hisoblanadi. U sog'lom turmush tarzini qadriyat darajasiga ko'tarish, insonning o'z salomatligiga ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantirish hamda hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, salomatlik estetikasining shakllanishi biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, madaniyat, ta'lim, oila va ma'naviy qadriyatlar ta'sirida yuz beradi. Sog'lomlikning estetik qadri sifatida anglanishi insonning o'zini rivojlantirishga intilishi, jismoniy va ruhiy uyg'unlikka erishishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda salomatlik estetikasini shakllantirish yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va salomatlik madaniyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois salomatlik estetikasini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy, pedagogik va madaniy mexanizmlarni takomillashtirish, sog'lom hayot tarzini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Aristotle. Metafizika. – Moskva: Mysl, 1976.
3. Immanuel Kant. Sof aql tanqidi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Abu Nasr al-Farabi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. World Health Organization. Constitution of the World Health Organization. – Geneva, 1948.
6. Anthony Giddens. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990.
7. Jean Baudrillard. The Consumer Society: Myths and Structures. – London: Sage Publications, 1998.
8. Hans-Georg Gadamer. Truth and Method. – New York: Continuum, 2004.